

Oriental Journal of Education



TECHNOLOGIES FOR IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS

Makhfuza Abbosovna Gofurova

*Department of Primary Education Methodology
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Fergana State University
mahfuza.gafurova73@gmail.com
Fergana, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: functional literacy, professional readiness, primary education, reflective teaching, portfolio, interactive methods, international experience, pedagogical technologies, teacher competence, professional development, methodological recommendations, innovative approach, pedagogical monitoring, learning process.

Received: 02.11.25

Accepted: 03.11.25

Published: 04.11.25

Abstract: This article analyzes technologies for improving the professional readiness of future primary school teachers from both theoretical and practical perspectives. The study examines strategies based on functional literacy, including reflective teaching, portfolios, and interactive methods. The article also illustrates effective approaches through international experiences in Finland, Singapore, Australia, and the Manchester model.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING PROFESSIONAL TAYYORGARLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

Mahfuza Abbosovna G‘ofurova

*Boshlang‘ich ta‘lim uslubiyoti kafedrasini
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Farg‘ona davlat universiteti
mahfuza.gafurova73@gmail.com
Farg‘ona, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: funksional savodxonlik, professional tayyorgarlik, boshlang‘ich ta‘lim, reflektiv o‘qitish, portfel, interfaol metodlar, xorijiy tajriba, pedagogik texnologiyalar, o‘qituvchi kompetentlig, malaka oshirish, metodik tavsiyalar, innovatsion yondashuv, pedagogik monitoring, o‘quv jarayoni.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining professional tayyorgarligini oshirish texnologiyalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot funksional savodxonlik asosida professional rivojlanish strategiyalari, shu jumladan reflektiv o‘qitish, portfel va interfaol metodlarni o‘z ichiga oladi. Maqola shuningdek xorijiy tajribalar (Finlyandiya,

Singapur, Avstraliya va Manchester modeli)
misolida o'qituvchilar tayyorgarligini
oshirishning samarali usullarini ko'rsatadi.

ТЕХНОЛОГИИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Махфуза Аббосовна Гафурова

Кафедра методики начального образования

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Ферганский государственный университет

mahfuza.gafurova73@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: функциональная грамотность, профессиональная готовность, начальное образование, рефлексивное обучение, портфолио, интерактивные методы, зарубежный опыт, педагогические технологии, компетентность учителя, повышение квалификации, методические рекомендации, инновационный подход, педагогический мониторинг, учебный процесс.

Аннотация: В статье анализируются технологии повышения профессиональной готовности будущих учителей начальных классов с теоретической и практической точек зрения. Исследование охватывает стратегии на основе функциональной грамотности, включая рефлексивное обучение, портфолио и интерактивные методы. Также приведен обзор эффективных подходов на примере зарубежного опыта: Финляндия, Сингапур, Австралия и Манчестерская модель.

Kirish. O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da mamlakatda "ilm va innovatsiyalarga asoslangan yangi iqtisodiyotni barpo etish" vazifasi qo'yilgan[1]. Bu vazifalar ijrosi doirasida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va unda ta'lim sifatiga erishish masalalari ham muhim o'rin tutadi.


Boshlang'ich ta'lim sifati, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lib, bugungi kunda funksional savodxonlik asosida o'qituvchilarni tayyorlash strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalar, reflektiv o'qitish, interfaol metodlar — o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'qituvchining malakasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari nafaqat fanlarni yetkazib beruvchi, balki talabalar hayotida poydevor rolini o'ynaydigan muhim shaxslar hisoblanadi. Ularning funksional savodxonligi — ya'ni o'z kasbiy faoliyatida zarur axborotlarni qabul qilish, tahlil qilish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish — ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu esa o'qituvchidan katta pedagogik mahoratni talab etadi. Pedagogik mahoratni egallash har bir o'qituvchi uchun o'z ustida maqsadli ishlash sharti bilan mumkin. Bu mahorat amaliy tajriba asosida shakllanadi. Ammo har qanday tajriba ham kasbiy mahorat manbaiga aylana olmaydi. Bunday manba faqat o'z faoliyatining mohiyati, maqsadi va

texnologiyasi jihatidan anglangan mehnat bo'lishi mumkin. Pedagogik mahorat — bu o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari hamda professional kompetentligining uyg'unlashuvidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So'nggi yillarda boshlang'ich ta'limda o'qituvchilarning professional tayyorgarligini oshirish masalalari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Vahidov pedagogik texnologiyalar va ularni o'qituvchilar tayyorgarligida qo'llash masalalarini keng yoritadi. Muallifning fikricha, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni ongli va maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanadi[4]. Sidorov reflektiv o'qitishning kasbiy rivojlanishga ta'siri, metodik yondashuv va pedagogik monitoringni tahlil qiladi. U reflektiv yondashuv orqali o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash hamda takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'kidlaydi[5]. Tadqiqotda, shuningdek, metodik yondashuv va pedagogik monitoring mexanizmlarining kasbiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatidagi ahamiyati yoritilgan.

Xorijiy manbalardan Hakkarainen va Lipponen Finlyandiya tajribasida o'qituvchilarning amaliyotga yo'naltirilgan tayyorgarlik strategiyalarini ko'rsatadi[6]. Ministry of Education Singapore interfaol metodlar va professional portfel tizimining o'qituvchilar malakasini oshirishdagi samaradorligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, samarali o'qituvchi tayyorlashning asosiy omili – bu nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasi, reflektiv faoliyatni rag'batlantiruvchi muhit yaratish va ta'lim jarayonida raqamli vositalardan oqilona foydalanishdir. Australian Institute for Teaching and School Leadership (2020) professional standartlar va mentorlik tizimi orqali o'qituvchilarning kompetentligini rivojlantirish usullarini beradi. Manchester School of Education (2019) nazariy bilimlar bilan amaliyotni uyg'unlashtirish orqali o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish tajribasini yoritadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, samarali professional tayyorgarlik amaliy tajriba, reflektiv yondashuv, interfaol metodlar va portfel texnologiyalari bilan birgalikda amalga oshirilishi zarur. Xorijiy tajribalar mahalliy tizimda innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi.



1-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining professional tayyorgarligini oshirish asoslangan mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin bo‘lgan metodlar.

Nazariy metodlar: ilmiy adabiyotlar va xorijiy hamda mahalliy manbalarni tahlil qilish, pedagogik konsepsiyalarni solishtirish va umumlashtirish. boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan kuzatuvlar olib borish, interfaol metodlar va portfel texnologiyasining amaliy samaradorligini baholash. empirik ma‘lumotlarni tizimli ravishda qayta ishlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Funksional savodxonlik insonning o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qanchalik qo'llashi mumkinligini ko'rsatadi, u individual tayyorgarlikning zarur darajasini belgilaydi. Ular kompetentsiyani hayotiy vaziyatlarda nostandart harakat qilish qobiliyati sifatida emas, balki xalqaro amaliyotda funksional savodxonlikni rivojlantirish va baholash uchun vazifalarning maxsus shakllari qo'llaniladi. Tuzilishi va bunday vazifalarning mazmuni an'anaviy o'quv va kognitiv vazifalardan sezilarli darajada farq qiladi. O'qituvchilarning ushbu asoslarni tushunishlari, farqlay olishlari va funksional savodxonlikning har bir turini rivojlantirish bo'yicha vazifalar, bu o'zgarishlarga tayyor o'qituvchiga ta'limning yangi sifatiga erishish imkonini beradi.

Tahlillar va natijalar. Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining professional tayyorgarligini oshirishda:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadli qo‘llash;
- reflektiv o‘qitish yondashuvini amaliyotga tatbiq etish;
- amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimini rivojlantirish — muhim omillar hisoblanadi.

Shuningdek, xorijiy tajriba natijalari O‘zbekiston ta‘lim tizimida funksional savodxonlik konsepsiyasini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Funksional savodxonlik asosida professional tayyorgarlik texnologiyalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Reflektiv o'qitish va interfaol metodlar amaliyotda qo'llanilishi shart. Xorijiy tajribalar esa milliy ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish imkonini beradi. Funksional savodxonlik insonning o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qanchalik qo'llashi mumkinligini ko'rsatadi, u individual tayyorgarlikning zarur darajasini belgilaydi. Ular kompetensiyani hayotiy vaziyatlarda nostandart harakat qilish qobiliyati sifatida emas, balki xalqaro amaliyotda funksional savodxonlikni rivojlantirish va baholash uchun vazifalarning maxsus shakllari qo'llaniladi. Tuzilishi va bunday vazifalarning mazmuni an'anaviy o'quv va kognitiv vazifalardan sezilarli darajada farq qiladi. O'qituvchilarning ushbu asoslarni tushunishlari, farqlay olishlari va funksional savodxonlikning har bir turini rivojlantirish bo'yicha vazifalar, bu o'zgarishlarga tayyor o'qituvchiga ta'limning yangi sifatiga erishish imkonini beradi.

Xulosa. Jamiyatda funksional savodxonlikni shakllantirishning muhim asosi sifatida ta'lim texnologiyalari, ya'ni muammoli ta'lim, interfaol ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, tadqiqotchilik ta'lim, modulli ta'lim va boshqa ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonida keng tatbiq etilishini qarashimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo integratsiyalash asosida takomillashtirish muammosiga doir milliy va xorijiy tajribalarning tizimlashtirish, ularda mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish, hozirgi holati, pedagogik shart-sharoitlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan metodlardan foydalanish orqali o'qituvchilarning o'zlashtirgan nazariy bilimi, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni yangi vaziyatlarda qo'llash orqali o'quv materialini ongli o'zlashtirishga erishish bosh vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. 2023-yil 28-fevral
2. Jabborova O. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2022.
3. Ефремова Н. Ф. Организатсия оценивания компетенций студентов, приступающих к освоению основных образовательных программ вузов. Рекомендация для вузов, приступающих к переходу на компетентностное обучение студентов. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2010. 132 с.
4. Vahidov, A. (2022). Pedagogik texnologiyalar va ularni o'qituvchilar tayyorgarligida qo'llash masalalari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

5.Sidorov, I. (2021). Reflektiv o‘qitishning kasbiy rivojlanishga ta’siri: metodik yondashuv va pedagogik monitoring. Moskva: Pedagogika nashriyoti.

6.Hakkarainen, K., & Lipponen, L. (2020). Teacher preparation strategies focused on practice in Finnish education. Helsinki: University of Helsinki Press.